

2022-yil 24-iyun

“O'zkimyosanoat” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan “Ichki xizmat tekshiruvlarini o'tkazish siyosati” bo'yicha yig'ilish o'tkazildi



Yig'ilishda “O'zkimyosanoat” AJ Komplayens xizmati bosh mutaxassisi J.Zikirov yig'ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masala bilan tanishtirib, quyidagilarni ma'lum qildi:

“Ichki xizmat tekshiruvlarini o'tkazish siyosati” “O'zkimyosanoat” AJning 2020-yil 9-oktyabrdagi №87-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan bo'lib, ushbu siyosatning maqsadi Jamiyatda ichki tekshiruvlarni o'tkazishda yagona yondashuvni aniqlash, yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklarga to'g'ri javob berishni ta'minlash, jarayonni va ichki tekshiruv natijalarini


hujjatlashtirish uchun talablarni belgilash, qonunbuzarliklarning sodir bo'lishiga va Jamiyatning faoliyatiga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan omillar va sharoitlarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Jamiyatda ichki tekshiruvlar qonun hujjatlariga rioya qilish, Jamiyat xodimlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish, ichki tekshiruvlar davomida olingan ma'lumotlar va materiallarning maxfiyligini ta'minlash, xodimlar tomonidan ichki tekshiruv o'tkazish jarayonida oshkoralik, vijdonlilik, kollegiallik, xolislik va ochiqlikni ta'minlash, ichki tekshiruv olib borilayotgan xodimning aybsizlik prezumpsiyasi tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.



Ichki xizmat tekshiruvi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi yoki Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini buzganlik belgilari to'g'risidagi yetarli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asoslar va ma'lumotlar mavjud bo'lgandagina o'tkaziladi. Ichki xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga amaldagi qonunchilik yoki Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarining buzilishi belgilari to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyat xodimlarining yozma, og'zaki shaklda o'z bevosita rahbariga, Komplayens xizmati xodimiga yoki Jamiyatning boshqa vakolatli xodimiga bildirilgan xabarlar, Jamiyatning aloqa kanallariga, "Ishonch telefoni"ga yuboriladigan xabarlar, shu jumladan anonim xabarlar, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, boshqa manbalarda e'lon qilingan ma'lumotlar, Jamiyat boshqaruvi yoki Kuzatuv kengashi a'zolarining topshiriqlari, ichki audit, taftish komissiyasining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish dalolatnomalari, tekshiruv harakatlari va surishtiruv funksiyalari o'tkazishga mas'ul bo'lgan davlat mansabdor shaxslarining, huquq-tartibot idoralarining Jamiyat xodimlariga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortilayotgan xatti-harakatlarni sodir etganlikda gumon qilinganligi munosabati bilan murojaatlari asos bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ichki xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbuskorlari Kuzatuv kengashi raisi va a'zolari, Jamiyat boshqaruvi raisi, Komplayens xizmati boshlig'i yoki xodimi, Jamiyat Axloq komissiyasi raisi, Ichki audit xizmati rahbari, Yuridik byuroning boshlig'i bo'lishlari mumkin. O'z navbatida, ichki xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibiga Jamiyatning komplayens xizmati, xodimlar bilan ishlash bo'limi, ichki audit xizmati hamda xizmat tekshiruvi sohasiga qarab tegishli bo'limlardan bittadan xodimlar kiritilishi shart. Ichki tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qaror bilan bir vaqtda Boshqaruv yoki Kuzatuv kengashi raisi ichki xizmat tekshiruvi ishchi guruhining rahbarini tayinlaydi, unga ishchi guruh tarkibini shakllantirish va ichki tekshirishni o'tkazish tartibi to'g'risidagi buyruqni tayyorlashni topshiradi.



Ichki tekshiruv o'tkazish buyrug'ida ichki tekshiruv predmeti, ichki tekshiruv olib boriladigan sabab va holatlar, agar qonunbuzarlik sodir etgan xodimlar ma'lum bo'lsa, ularning ismi, shariflari va lavozimlari, tekshiruvni o'tkazishga mas'ul ishchi guruh tarkibi, ishchi guruh rahbari va a'zolari, maxfiy axborotdan foydalanish va Jamiyatning boshqa xodimlarini ichki tekshiruvga jalb qilish bo'yicha ishchi guruh rahbari va a'zolarining huquqlari, Jamiyat xodimlarining ichki tekshiruv o'tkazishda Ishchi guruhga yordam berish majburiyati, Boshqaruv yoki Kuzatuv Kengashi raisiga ichki tekshiruv natijalarini berish muddati ko'rsatilishi kerak.

Ichki xizmat tekshiruvi Jamiyat Boshqaruv kengashi yoki Kuzatuv kengashi raisi tomonidan ichki tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi buyruq imzolangan kundan boshlab 30 kalendar ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshirilishi kerak, agar ichki tekshiruv jarayonida qo'shimcha tartib-taomillarning bajarilishi (shu jumladan, xodimlar va boshqa shaxslardan qo'shimcha so'rovlarni o'tkazish) majburiyati vujudga kelsa, bunday hollarda ichki tekshiruvni o'tkazish muddati istisno tariqasida, yana bir oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin. Ichki xizmat tekshiruvi

jarayonida ishchi guruh qonunbuzilish bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va hujjatlashtirishni amalga oshiradi, qonunbuzilish holatlarini, uni sodir etishda ishtirok etgan shaxslarni, Jamiyatga yetkazilgan zararining xususiyati va miqdorini va qonunbuzilishi sodir etilishiga oid boshqa ma'lumotlarni o'rganadi.



Ichki xizmat tekshiruvi natijalariga ko'ra, ishchi guruhi rahbari yoki uning topshirig'iga binoan, ishchi guruhi a'zolaridan biri yozma xulosa chiqaradi ushbu shakl rahbar, ishchi guruhining barcha a'zolari, shuningdek, ichki tekshiruv olib borilayotgan xodim tomonidan imzolanadi.

Ichki tekshiruv natijalariga ko'ra, tegishli buyruq chiqarish orqali Jamiyat Boshqaruv yoki Kuzatuv kengashi raisi bir yoki bir nechta qaror qabul qiladi:

- qonunbuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar tasdiqlanmaganligi sababli ichki tekshiruvning tugatilishi to'g'risida;
- ichki tekshiruv materiallarini qayta ko'rib chiqish uchun qaytarish, sabablari yoki asoslari va qayta ishlash muddatlarini, shuningdek, agar lozim bo'lsa, ishchi guruh tarkibini o'zgartirish to'g'risida;
- aybdor xodimga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash yoki uni Jamiyatning amaldagi qonunchiligi va ichki me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan moddiy yoki boshqa javobgarlikka tortish to'g'risida;
- xodimga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- kelgusida shunga o'xshash qonunbuzarliklarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni

o'tkazish;

- xodimning huquqbuzarligi to'g'risidagi materiallarni, agar ularda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq huquqbuzarlik (jinoyat) belgilari bo'lsa, huquqni muhofaza qilish organlariga topshirish.

Yig'ilish so'ngida seminar mavzusi bo'yicha ishtirokchilarning bir qator savollariga javoblar berildi.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ichki-xizmat-tekshiruvlarini-utkazish-siyosati>